

## Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

### I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-mart holatiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 826 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 873 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,9 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 306 tasi (10,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 246 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 239 tasi (8,5 %) kiyim ishlab chiqarishga va 196 tasi (6,9 %) mebel ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1- mart holatiga ko‘ra





## II. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2026- yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 4 578,1 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>4 578,1</b>	<b>106,8</b>
Nukus sh.	1 212,9	101,2
Amudaryo tumani	226,4	106,1
Beruniy tumani	158,2	107,1
Bo‘zatov tumani	11,3	110,8
Qorao‘zak tumani	101,8	126,1
Kegeyli tumani	93,3	107,5
Qo‘ng‘irot tumani	274,4	103,8
Qanliko‘l tumani	102,8	119,2
Mo‘ynoq tumani	81,4	100,3
Nukus tumani	138,4	145,4
Taxiatosh tumani	796,5	107,4
Taxtako‘pir tumani	115,3	66,1
To‘rtko‘l tumani	158,1	105,7
Xo‘jayli tumani	134,2	110,3
Chimboy tumani	113,9	123,8
Shumanay tumani	53,2	125,7
Ellikqal‘a tumani	147,4	108,5

### Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

### Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (3 495,0 ming so‘m), Taxiatosh tumanida (10 267,9 ming so‘m), Nukus tumanida (2 496,5 ming so‘m), o‘rtacha respublika darajasi ko‘rsatkichidan (2 242,6 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati 105,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Nukus tumanida (142,7 %), Shumanay tumanida (125,0 %), Chimboy tumanida (123,1 %) qayd etilib respublika ko‘rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**  
*Yanvar-fevral oylarida*



### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 3 653,1 mlrd so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (79,8 %) ni tashkil etgan holda Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 31,4 mlrd so‘m (0,7 %), Elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 860,4 mlrd so‘m (18,8 %) hamda Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 33,2 mlrd so‘m (0,7 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**  
*2026- yilning yanvar-fevral oylarida*





### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-fevral oylarida respublikada 6,2 ming tonna paxta tolasi (2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 74,5 % ga ko‘paygan), 216,5 tonna makaron (38,8 % ga ko‘paygan), 5,1 ming tonna ip kalava (21,8 % ga ko‘paygan), 14,4 ming tonna bug‘doy uni (9,4 % ga ko‘paygan), 146,6 mln kub metr tabiiy gaz (8,4 % ga ko‘paygan), 37,7 ming tonna dinatriy karbonati (4,2 % ga kamaygan), 542,0 ming litr aroq (4,5 % ga kamaygan), 1,1 ming tonna o‘simlik yog‘i (19,1 % ga kamaygan), 90,3 ming tonna portlandsement (20,2 % ga kamaygan), 307,0 tonna o‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (56,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-fevral *	2025 yil yanvar-fevral *	2026 yil yanvar-fevral
Portlandsement, tonna	106 870,0	113 189,9	90 290,0
Paxta tolasi, tonna	10 581,2	3 531,0	6 161,0
Tozalangan o‘simlik yog‘i, tonna	1 186,1	1 331,5	1 077,0
Bug‘doy uni, tonna	9 689,1	13 155,0	14 387,7
O‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	1 021,0	699,0	307,0
Aroq, ming l 100% li spirt	676,4	567,2	542,0
Ip kalava, tonna	3 452,0	4 208,4	5 124,1
Tabiiy gaz, mln kub m	153,8	135,3	146,6
Dinatriy karbonati, ming t	39,2	39,4	37,7
Makaron, tonna	258,0	156,0	216,5

\*2024-2025 yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.


**Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,4 % (2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 34,4 % (2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,2 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,01 % ni (2025- yilning yanvar-fevral oyida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 35,2 % ni (38,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 8,2 % ni (8,3 %), quyi texnologiyali 56,6 % (52,9 %) ni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi



2026- yilning yanvar-fevral oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 103,4 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 83,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-fevral *	2025 yil yanvar-fevral *	2026 yil yanvar-fevral
Elektrenergija, mln.kvt.s	1 051,1	850,4	879,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	16,3	14,4	12,1
Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	43 436,6	21 535,0	47 343,0

### Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarda 110,1 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlarda 103,2 % ga ko‘payish kuzatildi, shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlarda 3,9 % ga, kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-fevral *	2025 yil yanvar-fevral *	2026 yil yanvar-fevral
Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	1 406,7	1 476,7	3 103,1
Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	1 995,7	2 715,3	2 609,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln so‘m	9 997,9	12 519,5	25 433,9

\*2024-2025 yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 745,0 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,7 % ni tashkil etgan.



#### V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste‘moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i.

##### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo‘yicha statistika ma‘lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma‘lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma‘lumotlari; e) uy xo‘jaliklari kuzatuv materiallari.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

### **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo‘yicha ta‘rif**

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko‘rinishdagi dinamikasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o‘zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig‘ma indeksi, bazis yilning qo‘shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo‘yicha indeks ko‘rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo‘lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

---

**Tayyorlash uchun mas‘ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi bo‘limi

**Ijrochi:**

M. Kurbanova  
61 222-75-87 (9510)

**Manzil:**

230103, Nukus,  
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy  
**Pochta:** info@qrstat.uz  
Tel.: +998 (61) 222-22-45

---